

**SVAMI VIVEKANANDANING IJTIMOIY VA SIYOSIY  
QARASHLARINING KONSEPTUAL VA NAZARIY TAHLILI**

*Abdusalimov Abror*

*TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada Svami Vivekanandaning ijtimoiy va siyosiy qarashlarining shakllanishi, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga munosabati tahlil qilinadi. Uning ijtimoiy qarashlari "ideal jamiyat" konseptsiyasini tahlil qilish orqali ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Svami Vivekananda, Siyosat, Ijtimoiy munosabatlar, Din, "Ideal jamiyat", Yunon tafakkuri, Sanskrit, Kasta (Varna) tizimi, sotsializm, kommunizm, dualizm.

**Аннотация:** В статье анализируется формирование общественно-политических взглядов Свами Вивекананды, его отношение к общественно-политическим процессам, происходящим в обществе. Его социальные взгляды раскрываются путем анализа понятия «идеальное общество».

**Ключевые слова:** Свами Вивекананда, Политика, Социальные отношения, Религия, «Идеальное общество», Греческая мысль, Санскрит, Кастовая (варнская) система, Социализм, Коммунизм, Дуализм.

**Abstract:** The article analyzes the formation of socio-political views of Swami Vivekananda, his attitude to the socio-political processes taking place in society. His social views are revealed by analyzing the concept of "ideal society".

**Key words:** Swami Vivekananda, Politics, Social Relations, Religion, "Ideal Society", Greek Thought, Sanskrit, Caste (Varna) System, Socialism, Communism, Dualism.

Svami Vivekananda o'zi uchun rohiblik yo'lini tanlagan va barcha dunyoviy narsalardan voz kechgan shaxslardan edi. Dunyoviy narsalarga qiziqishi bo'lmanan insonda moddiy ehtiyojlarini o'zgalar tomonidan qondirilishiga nisbatan hech qanday istak ham bo'lmaydi. Shu jihatdan ham u boshqa dunyoviy narsalar singari,

siyosatdan ham doim o‘zini uzoq tutishga intilgan. U siyosiy faoliyat sababli o‘z tanlagan yo‘lidan chalg‘ib ketishdan, shuningdek bu faoliyat orqali o‘zgalarga zarar yetishidan xavotirlanar edi. Shuning uchun, o‘z davrining biron bir siyosiy faoliyatida uning ishtiroki kuzatilmagan, biron bir siyosiy qarashni ham yoqlamagan. Bugina emas, u hatto o‘zining monastir tashkiloti a’zolariga ham siyosatning har qanday shaklidan chetda bo‘lishni buyirgan. Qoidaga amal qilmaganlar tashkilotdan chetlatilishi mumkinligi haqida ogohlantirilgan edi. Qoidalarning qanchalik kuchli ekanligini Nivedita ismli kishining siyosatga ozgina aloqasi borligi aniqlanganligi sababli Ramakrishna missiyasidan chetlashtirilganligidan ham yaqqol ko‘rish mumkin edi. Svami Vivekananda Niveditaning qattiq yalinib so‘rashiga qaramay, unga Sannyasin bo‘lishga ruxsat bermaydi. Chunki Vivekanandaning o‘zi o‘sha paytda uztoz (आचार्य Achariya), ya’ni bashariyatga yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz edi. U bu xatti-harakati orqali boshqalarni ham bu ishdan tiyilishga chaqirgan va qoidalarga amal qilmasa nima bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatib qo‘ygan.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, insoniyatga bo‘lgan chuqur hayrixohligi tufayli u o‘zining siyosat haqidagi g‘oyalariga hech qanday istisno qilmagan holda, siyosat haqidagi ba’zi fiklarilarini biz bilan o‘rtoqlashadi. U siyosatga unchalik ishonmasdi, chunki u ko‘pincha “siyosat insonlarni mansabi orqali boshqalarni talon-taroj qiladigan va ommaning qonini so‘rib o‘zini semirtirib yuradigan vahshiylargacha aylantiradi” deb hisoblaydi. U bu fikrlari orqali siyosatni insonlarni insoniy sifatlaridan ajralib, o‘z nafslari yo‘lida hech narsadan taft tortmaydigan vaxshiy hayvonga o‘xshatib qo‘yishi mumkinligini nazarda tutgan. Hozirgi kunda ba’zi jamiyatlarda sodir bo‘layotgan turli xil voqealarga qarab, buni hech kim inkor eta olmaydi. Dunyoda shu kungacha sodir bo‘lgan va bo‘layotgan urushlarning barchasi buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Dunyoga bo‘lgan hirs insoniyatni shu darajada vaxshiylashtirib yuborayaptiki, insonlar mol-dunyo ilinjida o‘z yaqinlari, hatto o‘z farzandlarini sotish holatlari ham kuzatilmoqda.

Darhaqiqat, agar u bugungi kunimizda dunyoga hukumronlik uchun yolg‘on va hirsga to‘lgan siyosatlarni ko‘rganida ularga nisbatan uning munosabati qanday bo‘lishi mumkinligini tasavvur qilish mumkin. Vivekananda Hindistonning har bir

zarra changini muqaddas ekanligini ma’naviy anglagan va uning kelajagi uchun qayg‘urgan kishilardan edi. Svami Vivekananda Qaqnchadan qancha donishmandlar uning tuprog‘larida kezib, xurofot va irqiy kamsitishlarsiz, hech qanday to‘sqliarsiz insoniyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishganva ularning davomchilari ham tarixning mushkul qiyinchiliklaridan o‘tib xuddi shunday siyosat olib borishlariga ishongan.

Svami Vivekananda Chikagodagi Butun Jahon Dinlar parlamentida so‘zlagan nutqida Hindistonning o‘ziga xos xususiyati va dunyo hamjamiyatiga qo‘shgan hissasi haqida gapiradi. U Hindistonning o‘z milliyligi va ozodligini saqlab qolishi dunyoning qolgan qismini ham unga o‘xhashga harakat qilishi uchun namuna sifatida ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega bo‘lishiga ishonardi. Shuning uchun, u hech bir millatni siyosiy jihatdan tobe yoki yo‘q qilinishiga toqat qila olmas edi. Shu sababdan, u har qanday holatda ham Britaniyani Hindistondan haydab chiqarish kerakligini ta’kidlaydi. Uning vatanparvarlik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan asarlaridan hind yoshlari o‘zлari uchun saboq va ilhom oldilar. Bu ishlari uchun o‘limidan so‘ng u inglizlar tomonidan siyosiy gumondorga aylantirildi.

Svami Vivekananda haqiqiy farovonlikka ma’naviy tanazzul orqali erishib bo‘lmasligini va ma’naviyatni tanazzulga uchrashiga esa siyosatni asosiy javobgar deb hisoblaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, “qonun, hukumat, siyosat –hech qanday yakuniy bosqich emas”, chunki ularning barchasning ortida “maqsad” yotadi. Uning fikricha, siyosatlar insonning ma’naviy rivoji va kamolotiga e’tibor bermaganligi bois bu maqsadni qo‘ldan boy beradi.<sup>1</sup>

U kastachilik, diniy va ijtimoiy xurofotlarga asoslangan siyosat Hindistonni qattiq qiynayotganini tushunib yetadi. Chunki bu yerda u tomonidan “ikkinchi darajali jihatlar” sifatida qaraladigan “ibodatxona va masjidlar” ga ustuvorlik berilayotgan edi. Gumanizm mutlaqo rad etilgan, insonlar o‘rtasidagi bo‘linishlarni

---

<sup>1</sup> G. R. S. Rao, 'Vivekananda's Socio Political Relevance' in Perspectives on Ramakrishna-Vivekananda Vedanta Tradition, edited by M. Sivaramkrishna & Sumita Roy (Hyderabad: Sterling Publishers, 1991), pp. 198-203. Hereafter, Ramakrishna-Vivekananda Vedanta, eds., Sivaramkrishna & Roy.

keltirib chiqaradigan ijtimoiy bo‘shliqni diabolizm (Iblisga sig‘inish) egallagan edi. U jirkanch o‘yin o‘ynayotgan siyosatdan g‘azablanar edi.

U g‘azabini shunday ifoda etadi: “Hozir, men o‘zimning ozgina tajribamda shunday bilimlarni to‘pladim: dinni ayblayotgan barcha iblislar uchun din aybdor emas: hech qachon hech bir din odamlarni tahqirlamagan, hech bir din ayollarni yoqmagan, hech qachon hech bir din boshqa bu kabi yovuz ishlar qilmagan. Unda odamlarni bu ishlarga nima undaydi? Siyosat, lekin hech qachon din emas; Agar bunday siyosat din nomini olsa, bu kimning aybi?” Bu fikrlarida u Hindistonda din siyosatning ta’siri ostida ekanligi va buning natijasida insonlarda dinga nisbatan yomon fikrlar shakllanayotganligini uqtirishga uringan. Din siyosatga moslashtirilganligi va uni siyosatdan xalos qilish kerakligini ta’kidlagan. Siyosat sababli din jamiyatda o‘z ahamiyati va obruyidan ayrilib qolishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Dinning mohiyati ma’naviyatdir. Hech bir dindor yomon amallarga aralashib, boshqalarga aziyat yetkazmaydi. Svami Vivekananda o‘zining ma’naviy tajribasi asosida dinni “inson ongi ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng ajoyib va eng sog‘lom faoliyat”, chunki bu insonning “konstitutsiyaviy zaruratidir”, deb hisoblaydi. U “inson hayvoniylik, odamiylik va ilohiylikning birikmasidir”, deydi.<sup>2</sup>

Dinning maqsadi insonda ilohiylikni namoyon qilish, uning yovuz moyilliklarini, ayniqsa, “juda sirli” tarzda harakat qiladigan hasad moyilligini yo‘q qilishdir. Adolatsizlik, hasadgo‘ylik va nafratdan iborat nizo keltirib chiqaruvchi siyosat hamma uchun sevgi va hamdardlikni uyg‘otadigan ma’naviyat uchun fidokor bo‘lgan odamga yoqmaydi.

Shuni hisobga olgan holda, Svami Vivekananda xalq ongini siyosiy g‘oyalar bilan to‘ldirish o‘rniga ma’naviy g‘oyalar bilan to‘ldirish kerakligini aytadi, shundagina yovuz siyosat odamlarni axloqsiz ish qilishga unday olmaydi. U ma’naviyatni sotsializm bilan qorishtirib, unga boshqacha nuqtai nazar bilan qaraydi.

---

<sup>2</sup> См.: Костюченко В.С. Вивекананда. М.: Мысль, 1977. 190 с.; и Костюченко В.С. Классическая веданта и неоведантизм. М.: Мысль, 1983. 272 с.

Yevropa ziyoli tinglovchilari oldida so‘zlagan nutqida u shunday dedi: “Hindistonda biz Advaita nuri bilan sug‘arilgan ijtimoiy kommunizmga egamiz; Yevropada siz ijtimoiy jihatdan individualistsiz, lekin sizning qarashlaringiz ma’naviy kommunizmga asoslangan dualistik shakldadir. Shunday qilib, biri individualistik fikr bilan cheklangan sotsialistik institutlardan iborat bo‘lsa, ikkinchisi communistik fikr bilan cheklangan doiradagi individualistik institutlardan iborat”.

Sotsializm siyosiy falsafa sifatida o‘sha paytda harakatga keltiruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi va tez sur’atlar bilan shuhrat qozondi. Uning to‘lqinlari Hindistonga ham yetib borgan edi. Svami Vivekananda uning G‘arbdagi yutug‘laridan yaxshigina xabardor edi. U buni “ommaga ruhiy dalda beradigan” o‘zining ba’zi g‘oyalariga o‘xhash deb hisoblaydi va natijada o‘zini “sotsialist” deb e’lon qilishni afzal ko‘radi.

Uning ayniqla proletariat(ishchilar tabaqasi) uchun qayg‘urishi uni hayratda qoldirdi. Ammo bu ham uni qanoatlantirmaydi, chunki u buni azob-uqubatlarni har tomonlama yengillashtiradigan vosita sifatida ko‘rmaydi, shuning uchun uni “yo‘qdan ko‘ra” deb ataydi. Uning tabiiy zaif tomonlarini payqab, u sotsializm boylar va nochorlar o‘rtasidagi katta jarlikni qisqartira olmasligini tushunib yetadi. Shu bilan birga, u uning targ‘ibotchilari va rahbarlari o‘rtasida bir qarorga kelishda turli xil tafovutlar mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, professor Subodh Sengupta yozganidek: “Zamonaviy dunyoda Sent Simon (1760-1825), Furye (1772-1832) va Robert Ouen (1804-1892) tomonidan mashhurlikni qo‘lga kiritgan sotsializm hech kim maqbul ta’rif bera olmagan juda murakkab tushunchadir. Marks unga “Har kimdan qobiliyatiga ko‘ra va har kimga o‘z ehtiyojlariga ko‘ra”, deb ta’rif beradi, lekin Lenin bu ta’rifni “Har kimdan qibiliyatiga qarab, har kimga mehnatiga yarasha” bilan almashtirdi. Bernard Shou ikkala ta’rifni ham rad etadi.”<sup>3</sup> Svami Vivekanandaning sotsialistik harakatlarni o‘rganishi qizg‘in va o‘zgaruvchan edi,

---

<sup>3</sup> G. R. S. Rao, 'Vivekananda's Socio Political Relevance' in Perspectives on Ramakrishna-Vivekananda Vedanta Tradition, edited by M. Sivaramkrishna & Sumita Roy (Hyderabad: Sterling Publishers, 1991), pp. 200-205. Hereafter, Ramakrishna-Vivekananda Vedanta, eds., Sivaramkrishna & Roy.

shuning uchun u Rossiya va Xitoy inqiloblarini, garchi ular usha davrda sanoatlashmagan mamlakatlar bo‘lsa ham, to‘g‘ri prognoz qila oldi. Uning 1897 yilda Hindiston ellik yil ichida ozodlikka erishadi, degan prognozi hammasidan ham to‘g‘ri chiqadi. O‘sha paytda bu bashorat aqlga sig‘maydigan bir hodisa sifatida qaralgan bo‘lsa-da, 1947 yilda u sodir bo‘ldi.

1902 yilda Svami Vivekananda vafot etganidan keyingi ellik yil dunyoda tom ma'noda g‘ala-g‘ovurlar davri bo‘ldi. Kuch va hokimiyatga bo‘lgan haddan tashqari intilish xalqaro siyosatni zaharladi. Imperializm, fashizm va natsizm dahshatli jinoyatlar va genotsidlarni davom ettirdi. Ikki qonli sotsialistik inqilob millionlab odamlarni o‘ldirdi. Eng achinarlisi, uzoq davom etgan ikki jahon urushi va bir-ikki atom bombasi insoniyatga ta’riflab bo‘lmaydigan baxtsizliklarni keltirdi.

Bu voqealardan ancha oldin, Svami Vivekanandaning o‘ta sezgir ongi misli ko‘rilmagan noxush holatlarni sezadi, bu esa uni dunyo har qanday lahzada portlashga sabab bo‘ladigan « vulqon girdobida» turganini jiddiy ogohlantirish shaklida ma’lum qilishga undaydi. Bu xavf-xatarlarini oldini olish uchun u BMT va uning hamkor tashkilotlariga qarata ularni xafa qilishi mumkin bo‘lgan fikrlarni o‘rtaga tashlaydi.

U shunday deydi: “Siyosat va sotsiologiyada hatto bundan yigirma yil avval ham mavjud bo‘lgan milliy muammolarni faqat milliy doirada hal qilib bo‘lmaydi. Ular juda katta ko‘lam va ulkan shakllarga ega bo‘lib bormoqda. Ular faqat xalqaro doiralar nuqtai nazaridan kengroq ko‘rib chiqilgandagina hal qilinishi mumkin. Bu xalqaro tashkilotlar, xalqaro birlashmalar, xalqaro qonunlar oldida turgan kunning dolzarb masalasidir”.

Siyosat zamonaviy hayotning ajralmas qismi ekanligini unutmagan holda, u odamlarning siyosatdan voz kechishining iloji yo‘qligini, chunki ularning hayoti ajralmas siyosiy majburiyatlar bilan bog‘liqligini bilardi. Shu sababli, u odamlardan siyosatdan yuz o‘girishlarini so‘ramagan. Bu borada u yangicha fikrlaydigan shaxs edi.

U shunday dedi: “Men Vedanta olib kelishi mumkin bo‘lgan ajoyib siyosiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmasdan turib, Angliyada dinni va’z qila olmasdim. Shu sababdan, Hindistonda ijtimoiy islohotlar qanchalik ma’naviy hayot olib kelishini

tasvirlash, Siyosat esa xalq istagan yagona narsani — uning ma’naviyatini qanchalik yaxshilashini ko‘rsatish orqali targ‘ib qilinishi kerak”.<sup>4</sup>

Svami Vivekananda siyosatda erkin kuzatuvchi edi. Siyosatning kiri unga tega olmas edi. Ammo uning siyosat haqidagi tahlili qisqa va lo‘nda, aniq va bezarar edi, shuning uchun ham u turli olimlar tomonidan yuksak hurmat va sadoqat bilan yodga olinadi.

Svami Vivekanandaning siyosiy va ijtimoiy qarashlarini konseptual va nazariy tahlil qilishda u tomonidan ilgari surilgan “ideal jamiyat” kontseptsiyasini o‘rganish o‘rinli bo‘ladi. Uning “ideal jamiyat” kontseptsiyasini tushunishda ikkita murakkab to‘siq mavjud. Birinchisi, Vivekananda o‘zining “ideal jamiyat” kontseptsiyasi haqidagi qarashlari va g‘oyalarini o‘z asarlarida deyarli yoritmagan. Ikkinchidan, Vivekanandaning ko‘plab tarjimai hollarini yozganlar yoki izdoshlari uning “ideal jamiyat” kontseptsiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanishmagan. Shunga qaramay, ba’zi biografiyalar bunday jamiyat Vivekananda tomonidan ilgari surilganini ko‘rsatadilar va buni Vivekanandaning jamiyat haqidagi qarashlarining minimal ta’rifida ko‘rish mumkin. Vivekanandaning biograflaridan Avraam Stiven, Xiltrud Rustau va V. Brodovlar boshqa biograflardan farqli o‘laroq, bu “ideal jamiyat” kontseptsiyasi bilan keng shug‘ullanishgan.<sup>5</sup> Ushbu yozuvchilardan tashqari, ushbu kontseptsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmasa ham, boshqa biograflar tomonidan ham o‘rganishga harakatlar qilingan. Shunday qilib, ushbu tadqiqotda olib boriladigan “ideal jamiyat” tahlili ko‘p jihatdan Vivekanandaning so‘zlari va yozishmalariga, shuningdek, uning tarjimai holida berilgan ma’lumotlarga asoslanadi.

Vivekanandaning fikrlarini tushunish va tahlil qilish uchun avvalo, “ideal jamiyat”, “ideal” tushunchalarining ma’nosini aniqlash va izohlashga urinish bizning maqsadimiz uchun xizmat qiladi deb taxmin qilish mumkin. “G‘oyalar” va “ideallar” o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki muhim tushunchalardir va har doim bu ikkala atama ma’no jihatidan o‘xshashlikka ega bo‘lgan. Bir tomonidan, “g‘oya” bilishning mazmunini, maqsadini anglatsa, boshqa tomonidan, “ideal”, orzu qilingan narsaning, erishmoqchi

---

<sup>4</sup> Веданта Сутра / Пер. С санскр. Д. М. Рагоза – СПб: Общество ведической культуры, 1995.

<sup>5</sup> Бродов В.В. Индийская философия Нового Времени. - М.: Изд-во Московского университета, 1967. С.160

bo‘lgan narsaning aqliy qiyofasi yoki tushunchasini anglatishi mumkin. Biroq, “ideal” odatda mavhum ma’noda taqdim etiladi, “g‘oya”lar esa idealga aylanishi mumkin va odatda u tushuncha yoki shakl sifatida taqdim etiladi. Shuning uchun “ideal”, erishish yoki amalga oshirilishi umid qilinadigan kontseptsiya bo‘lishi mumkin.

“Ideal” atamasini tushunganimizdan so‘ng, endi Vivekananda jamiyatni qanday tushunganini o‘rganishga harakat qilamiz. V. K. Arora Vivekanandaning jamiyat haqidagi tushunchasini, shuningdek, uning xususiyatlarini quyidagicha aniq ifodalaydi:

“Jamiyat ilohiy ijod bo‘lib, turli shaxslar yig‘indisi va uning asosi dindir. Uning xususiyatlari farovonlikka erishish uchun fidoyilik, jamiyat bilan «yakdil» bo‘lishga bosqichma-bosqich o‘tish va insoniy munosabatlarning yakuniy natijasi, umumiy baxtga erishishdir”.<sup>6</sup>

Biz ushbu iqtibosdan Vivekanandaning jamiyat haqidagi tushunchasining muhim bo‘lgan individualistik va sotsialistik jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, din yoki boshqacha aytganda, ma’naviyat uning jamiyat haqidagi qarashlarida muhim rol o‘ynaydi. Haqiqat jamiyatga moslashmasligi, balki jamiyatlar, haqiqatga asoslangan bo‘lishi kerak, deydi Vivekananda. Vivekananda uchun insoniyat jamiyatining taraqqiyoti ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilishi kerak. Shuningdek, u har bir jamiyatning o‘ziga xos yuksalish va tushish bosqichlari mavjudligiga ishonadi. U shunday deydi:

“Xalqlar tarixi shunday tarzda davom etadi, ba’zan ular ko‘tariladi va ba’zan pasayadi; ko‘tarilishdan keyin pasayish holati kuzatiladi, yana yiqilishdan keyingi ko‘tarilish holati katta kuchga ega bo‘ladi. Bu harakat muntazam davom etadi. Ma’naviy dunyoda ham xuddi shunday harakat mavjud. Har bir xalqning ma’naviy hayotida yuksalish bilan birga pasayish holati ham kuzatiladi”.

Bu Vivekananda jamiyatni va umuman millatni qanday tushunganligi haqida taassurot uyg‘otadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz “ideal jamiyat”ni tahlil

---

<sup>6</sup> Челышев И. П. Этические идеи в мировоззрении Вивекананды, Б.Г. Тилака и Ауробиндо Гхоша. - М.: Наука, 1986. С.36.

qilishga o‘tamiz. Buni tushunish uchun avvalo Vivekananda tomonidan ta’kidlanganidek, kasta (varna) tizimini tushunish lozim. Uni soddalashtirish uchun Vivekananda jamiyatni ikki kastaga ajratdi - yuqori tabaqa (Brahman, Kshatriya va Vaishya) va quyi kasta (Shudra). U o‘z fikrini dunyo tarixida to‘rt tabaqa birin-ketin jamiyatni boshqarganligi bilan asoslaydi. Bu borada Vivekanandaning o‘zidan iqtibos keltirish o‘rinli bo‘ladi:

Insoniyat jamiyati o‘z navbatida to‘rtta kasta - ruhoniylar, askarlar, savdogarlar va ishchilar tomonidan boshqarildi. Ruhoniylar (brahmanlar) o‘z boshqaru davrlarida jamiyat ongini rivojlantirdilar, chunki ular jamiyatni aql orqali boshqardilar. Harbiylar (Kshatriya) boshqaruvi zulim va shafqatsizlikka asoslangan edi, lekin bu davrda san’at va ijtimoiy madaniyat o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqdi. Keyinchalik tijoratchilar (Vaishylar) boshqaruuv davri keldi. Bu so‘zsiz ezish va qon so‘rish orqali amalga oshirildi. Bu davrning birdan bir afzalligi shundaki, tijoratchilar hamma joyda hozir-u nozir bo‘lganliklari uchun ham ular o‘z g‘oyalarini xalq orasida tarqatishda yaxshi targ‘ibotchilar bo‘lishdi, ammo bu davrda madaniyat parchalana boshladi. Oxirgi bosqichda ishchi (Shudra) guruhi hukmronligi keladi. Bu davrning afzalliklari jismoniy qulayliklarning teng taqsimlanishi bilan, uning kamchiliklari esa madaniyatning pasayishi bilan e’tirof etiladi. Bu davrda o‘rtacha ta’lim berish rivojlanadi, lekin favqulodda daholar nisbatan kam yetishib chiqadi.

Barcha uch katta kasta jamiyatda o‘z hukmronligini amalga oshirib bo‘ldi. Va endi, navbat shudralar hukmronligiga keldi, deydi Vivekananda. Uning fikricha, boshqa qoidalar tajribadan o‘tgan, ammo qoniqarsiz deb topilgan. Shuning uchun, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida Vivekananda “ideal jamiyat” go‘yasini taklif qiladi. Ammo, u tomonidan nazarda tutilgan, “ideal jamiyat” zikr qilingan davrlarning hech birini tanlash imkoniyatiga ega emas edi, buning o‘rniga u barcha to‘rt davrning yig‘indisi bo‘ladi.<sup>7</sup> Shunday qilib, Vivekananda shunday ta’kidlaydi:

Agar ularning yomonliklarini hisobga olmaganda, brahmanlar boshqaruvi davridagi bilimlar, kshatriylar boshqaruvi davridagi madaniyat, vaishylar boshqaruvi

---

<sup>7</sup> Vivekananda Swami. Writings Prose // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 4. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.316.

davridagi tijoratning rivojini o‘zida jamlagan va shudralarning ideal tengligi saqlanib qoladigan davlatni shakllantirish mumkin bo‘lsa, bu ideal holatdir.

Vivekananda kastaning mavjudligini va uning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning “ideal jamiyat” kastaga asoslangan edi. Vivekanandaning “ideal jamiyat” kontseptsiyasida faqat bitta tabaqa mavjud bo‘ladi, chunki bu konseptsiyaning rejasiga binoan quyi tabaqalar yuqori tabaqa darajasiga ko‘tariladi. Ya’ni, barcha tabaqalar eng yuqori darajadagi Brahman darajasiga ko‘tariladi. Bundan tashqari, jamiyat har bir davrning afzalliklarini saqlab qolish orqali o‘tmishning to‘rtta davridagi kamchiliklarni yengib o‘tishga harakat qilishi kerakligini ta’kidlaydi. Vivekanandaning “ideal jamiyat”ida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng muhim ish Chandalani Brahman maqomiga ko‘tarishdir.

Vivekanandaning ta’kidlashicha, “sanskrit tilini bilish kasta tafovutlarini tenglashtirishning eng yaxshi vositasi bo‘ladi”. Bunga qo‘srimcha qilib u shunday deydi “Brahmanlik – Hindistondagi insoniylikning idealidir.” Bu ideal orqali u ma’nан yetuk, dunyoviylikdan yiroq bo‘lgan va donishmandlikning yuqori cho‘qqisiga erishgan brahmanlikka ishora qiladi. Vivekananda “idial jamiyat”da kuch, boylik, tug‘ilish yoki ijtimoiy mansublik imtiyozlari uchun o‘rin bo‘lmaydi, deb ta’kidlaydi.

Ushbu “ideal jamiyat” kontseptsiyasi doirasida Vivekananda ideal erkaklar va ideal ayollarning ajralmas mavjudligini ham nazarda tutgan.

“Ram, qadimiy davrning qahramonlik mabudi, haqiqat, axloq timsoli, ideal o‘g‘il, ideal er, ideal ota va eng muhimi, ideal podshoh. Sita betakrordir. U chinakam hind ayolining o‘ziga xos timsoli, chunki hind komil ayolning barcha ideallari o‘scha yagona Sitaning hayotidan o‘sib chiqqan. U poklik va sabr-toqat timsoli. U azob-uqubatli hayotini nolimasdan o‘tkazgan, u xalq ideali, xudolar ideali, buyuk Sitadir. Hind qizlari uning ideali asosida o‘sib-ulg‘ayishlari kerak”<sup>8</sup>, deydi Svami Vivekananda.

---

<sup>8</sup> Vivekananda Swami. Practical Vedanta and Other Lectures // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 2. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.391.

Vivekanandaning “ideal jamiyat” kontseptsiyasi qadimgi hind an’analari asosida jamiyat qurishga qaratilgan, bu yerlik insonlarda Ram va Sita timsollarida namoyon bo‘lgan xislatlar singari xislatlar namoyon bo‘ladi. Shu tariqa Svami Vivekananda dinni turtki beruvchi kuch sifatida ishlatib, axloqqa asoslangan hind jamiyatining poydevorini yaratishga harakat qiladi. Bundan tashqari, “ideal jamiyat” birlik idealini amalga oshirishi kerak edi.

Vivekananda fikriga ko‘ra, hind ma’naviyati va Yevropa qudrati bilan ifodalangan yunon mafkurasining birlashuvi ideal hind jamiyatini shakllantirishga yordam beradi.

Vivekananda qat’iy tarzda yagona rag‘batlantiruvchi kuchi din bo‘lgan hind xalqi Yevropadan tashqi borliqni zabit etishni, Yevropa esa Hindistondan ichki borliqni zabit etishni o‘rganishi kerak, deb hisoblaydi. Agar bu hodisa sodir bo‘lsa, hindlar yoki yevropaliklar degan tushuncha bo‘lmaydi, ideal insoniyat paydo bo‘ladi. Bunga qo‘sishmcha tarzda Vivekananda, ideal jamiyat hindlarning ma’naviy yaxlitlik g‘oyasini va G‘arbning ijtimoiy taraqqiyot g‘oyasini o‘zida jamlagan jamiyat bo‘lishini ta’kidlaydi. G‘arbning ijtimoiy taraqqiyot g‘oyasini u, aftidan, ijtimoiy erkinlik, demokratiya va materializmning bir ko‘rinishi sifatida tushingan. U bu ehtiyojni quyidagi so‘zlar bilan aniq ko‘rsatadi:

Vivekananda o‘zining “ideal jamiyati” uchun kerakli fazilatlarning ba’zilarini g‘arbdan o‘zlashtirish lozimligini ta’kidlaydi. Shunga qaramay, u ijtimoiy g‘arblashtirishga qarshi edi. Uning so‘zlariga ko‘ra, Hindiston o‘z an’analariga ko‘ra rivojlanishi kerak. Uning so‘zlariga ko‘ra, islohot bu yechim emas, balki milliy o‘sishdir.

Ammo bunday “ideal jamiyat” bo‘lishi mumkinmi? Vivekananda bu savolga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob bermaydi. Shunga qaramay, u o‘zining “ideal jamiyati” ni qurishga harakat qilar ekan, o‘zi o‘ylagan g‘oyalarnini amalga oshirish uchun etarli bo‘lgan qimmatli takliflarni o‘rtaga tashlaydi. Shuningdek, u tenglik va erkinlik ommanning diniy e’tiqodiga putur yetkazmasdan ta’milanishi kerakligini ta’kidlaydi. Ommaga o‘zining yo‘qolgan shaxsiyati qaytarib berilishi kerak. Ular ta’lim olishlari kerak, deydi.

Vivekanandaning fikricha, ular ta’lim olishsagina, ijtimoiy zulmning asosiy omillarini aniqlay oladilar va yuqori tabaqalar tomonidan qilinadigan tug‘ilishidan ustunliklari haqidagi da’volar aslida ma’nosiz ekanligini tushunadilar. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Vivekananda kasta tizimi dinning bir qismi ekanligini tan olmagan; aslida u odamlar bu barqarorlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy tizim ekanligini bilishlarini istardi. Vivekananda taklif qilgan keyingi qadam diniy g‘oyalarni jamiyatga tatbiq etishdir. Biroq, u dinni o‘zining tegishli chegaralarida saqlash kerakligini va bu jamiyatning rivojlanishi uchun erkinlik berishini ta’kidlashni ham unutmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Бродов В.В. Индийская философия Нового Времени. - М.: Изд-во Московского университета, 1967. С.160
2. Vivekananda Swami. Notes of Lectures and Classes // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 9. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.315.
3. Vivekananda Swami. Raja Yoga // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 1. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.418.
4. Vivekananda Swami. Inspired talks // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 7. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.76
5. Vivekananda Swami. Writings Prose // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 4. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.316.
6. Vivekananda Swami. Sayings and Utterances // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 5. - Kolkata Advaita Ashrama, 2013. P.425.
7. Vivekananda Swami. Writings: Prose and Poems // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 5. - Kolkata Advaita Ashrama, 2013. P.471.
8. Челышев И. П. Этические идеи в мировоззрении Вивекананды, Б.Г. Тилака и Ауробиндо Гхоша. - М.: Наука, 1986. С.36.
9. Vivekananda Swami. Addresses on Bhakti-Yoga // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 4. - Kolkata Advaita Ashrama, 2013.P.57.
10. Vivekananda Swami. Practical Vedanta and Other Lectures // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 2. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013. P.391.